

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSIQIY-ESTETIK TARBIYALASH IMKONIYATLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sattorova Go'zal Shakur qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at 7- muz 22 -1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Musiqa terapiyasi-tanadagi va ruhiy kasalliklardan aziyat chekadigan bolalar va kattalarni davolash, rehabilitatsiya qilish, o'qitish va tarbiyalashda musiqa ta'siri yordamidan foydalanib musiqani his-tuyg'u bilan idrok etishga asoslangan psixoterapiya usuli. Kuy ohangining ritmik asosidan va ijro etilishidan kelib chiqib, musiqa insonlarga ularning individual ichki kechinmalari va his-tuyg'ulariga qarab turli xil ta'sir etadi. Musiqani inson kayfiyatiga ta'sir etish maqsadida foydalanish mumkin. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan guruhlarda musiqa darslarining olib borilishi xaqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar:

KIRISH

Zamonaviy davr – o'zgarishlar davridir. Individual xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiq atrof-muhit bilan to'liq o'zaro ta'sirga ega bo'lgan ijodiy faol shaxsni shakllantirish hozirgi zamon pedagogikasining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan zamonaviy maktab shaxs, uning ijodiy individualligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilishi kerak, bu o'z navbatida, butun bilim olish jarayoni tizimining psixologik shakllarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini takomillashtirishni talab qiladi.

An'anaviy musiqa ta'limi bosqichma-bosqich katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu o'z navbatida zamonaviy jamiyatning xususiyatlari va muammolari bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchilardan kasbiy tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshirish, faol shakl va usullarni, o'qitishning texnik vositalarini yanada keng qo'llashni talab etadi. Bunda o'quv jarayoni, fanlar o'rtasidagi (ichki – musiqa nazariyasi fani o'rtasida va tashqi – musiqiy-nazariy va umumta'lim fanlari o'rtasida) o'zaro integratsiyalashuvning roli kuchayadi.

ASOSIY QISM

Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim sifatini oshirishda musiqa nazariyasi fanidan to'garaklar tashkil qilish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida fanlar bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarning roli keskin oshdi. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib, bilimlarning amaliy ahamiyatiga ishonch hosil qiladilar, qo'shimcha ma'lumotlar olib, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanadilar.

Musiqa nazariyasi fanidan tashkil etilgan to'garaklar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga, chuqurlashtirishga, kengaytirishga, ularning qobiliyatini rivojlantirishga, umumiy dunyoqarashni kengaytirishga, shaxsiy fazilatlarining namoyon bo'lishiga, hamda aynan shu fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarining oshishiga va yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.

Musiqa nazariyasi fanidan tashkil etilgan to‘garaklarning yana bir ijobiy tomoni va afzalligi shundaki musiqa nazariyasi fanidan dars beradigan o‘qituvchisi bilan yaqinroq tanishishga muvaffaq bo‘ladilar.

To‘garaklar o‘quvchilarning darsdan tashqari ish faoliyatining asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, rejalashtirilganligi, maqsadga yo‘naltirilganligi, tizimlilik bilan katta ahamiyatga ega. To‘garak mashg‘ulotlari o‘quv dasturi bilan tartibga solinmaganligi sababli, o‘qituvchining tadqiqot faoliyati uchun cheksiz imkoniyatlarni yaratib beradi. Mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish jarayonida o‘qituvchi taxmin va gipotezalarining tog‘ri ekanligini, mashg‘ulot davomida qo‘llaydigan metod va texnologiyalarining samaradorligini, tayyorlagan materialining amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini tekshirib olishi uchun imkoniyat tug‘iladi. To‘garaklarda ishlash o‘qituvchidan aniq xarakter ritmini, vaqt va e‘tiborni to‘g‘ri taqsimlash qobiliyatini, bajarilgan vazifalarning sifatini nazorat qilish, har bir o‘quvchining yutug‘ini o‘ vaqtida ko‘ra olish va rag‘batlantirishni talab etadi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchisini kasbga tayyorlash va musiqa nazariyasi fanidan bilimlarini oshirishda ustoz-shogird an‘anasi asosida individual darslarni tashkil etish ham yuqori samaradorlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Individual darslarda gurux darslaridan farqli o‘laroq o‘qituvchining butun diqqat e‘tibori bir o‘quvchiga qaratilib, ustoz o‘quvchining ma‘lumotlarni idrok etish xususiyatidan kelib chiqqan xolda mavzuni tushuntiradi va o‘quvchi o‘zlashtirishi uchun qiyinchilik tug‘dirayotgan joylarini qayta-qayta tushuntirish uchun sharoit tug‘iladi. Individual darslar har bir o‘quvchiga moslashtiriladi. Gurux darslarida mavzu o‘qituvchi tomonidan belgilansa, individual darslarda o‘quvchiga aynan qiyinchilik tug‘dirayotgan mavzu ustida ishlash mumkin. O‘quvchi va o‘qituvchining diqqat e‘tibori muayyan bir to‘siqni yengib o‘tishga qaratiladi.

O‘quvchi aktiv o‘ylaydi, mashqalar bajaradi va savollarga javob beradi. Buning natijasida fanni o‘zlashtirish sezilarli darajada o‘sadi va darsga nisbatan qiziqish ham oshadi. Imkoniyati cheklangan kōzi o‘jizlar maktabi o‘quvchilarini tayyorlashda musiqa nazariyasi fanida integratsiyalashuvni ta‘limning umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda tizimli va rejalashtirilgan tarzda amalga oshirish, turli fanlarning orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni amalga oshirish, o‘quv materialini tanlash va saralash o‘quvchilarning umumiy rivojlanishida, ularning intellektual va hissiy faoliyatining barcha sohalarini uyg‘un rivojlantirishda katta ta‘sirga erishishga yordam beradi.

Ixtisoslashtirilgan imkoniyati cheklangan kōzi o‘jizlar maktabi o‘quvchilarining ayrimlari musiqiy – nazariy bilimlarni egallashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun musiqiy – nazariy fanlardan dars beradigan professor o‘qituvchilarda: “Barcha o‘quvchilar kerakli natijaga erishishi uchun nima qilish kerak?” – degan savol tug‘iladi. O‘qituvchi bir darsning ichida bilim darajasi turli xil bo‘lgan har bir o‘quvchiga ma‘lum hajmdagi nazariy materialni yetkazib berishi, amaliy ko‘nikmalarni egallashiga ko‘maklashishi, shuningdek musiqiy eshitish qobiliyatini ham rivojlantirishi kerak. Bunday vaziyatda an‘anaviy akademik ta‘lim uslubi har doim ham muvaffaqiyatli bo‘lmaydi, zamonaviy ta‘lim usullari orqali muammoni hal qilish uchun yo‘lni ochib beradi. Zamonaviy o‘qituvchi ta‘limda nimani o‘zgartirish kerakligini tushunishi kerak.

XULOSA

Zamonaviy musiqa pedagogikasining muhim yoʻnalishi Imkoniyati cheklangan oʻquvchisini tayyorlash jarayoni samaradorligini oshiradigan vositalar va shart-sharoitlarni izlashdir. “Farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi, zamonaviy kasb – hunarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan masala hisoblanadi” – deydi Oʻzbekiston respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar avlodni tarbiyalash birinchi navbatda oliy taʼlim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har jihatdan tayyor boʻlishini taqozo etadi. imkoniyati cheklangan kōzi ojizlar maktabi oʻquvchilarini tayyorlash, avvalambor, ularning musiqiy-ijodiy rivojlanishiga, musiqa nazariyasi fanini real amaliy faoliyat bilan birgalikda mazmunli bogʻlashiga; ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va oʻziga ishonchni hosil qilish, kelajakdagi kasbiy faoliyatining ahamiyatini tushunish va unda oʻzini topishga qaratilgan.

Zamonaviy maktab shaxs, uning ijodiy individualligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yoʻnaltirilishi kerak, bu oʻz navbatida, butun bilim olish jarayoni tizimining psixologik shakllarini hisobga olgan holda oʻquv jarayonini takomillashtirishni talab qiladi.

Anʼanaviy musiqa taʼlimi bosqichma-bosqich katta oʻzgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu oʻz navbatida zamonaviy jamiyatning xususiyatlari va muammolari bilan bogʻliq boʻlib, oʻqituvchilardan kasbiy tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshirish, faol shakl va usullarni, oʻqitishning texnik vositalarini yanada keng qoʻllashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Hasanov A. “Musiqqa va tarbiya”-T.O`qituvchi 1993.
2. Yusupova N. “Musiqqa savodi, metodika va ritmika” Toshkent 2010.Musiqqa nashriyoti.
3. М. С. Мухидинова “Мақтабгача таълим ташкилотларида ахборот- компьютер технологияларини муסיқа тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари” 2020 уil
4. Ш. Р.Махкамова “Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда муסיқанинг ўрни” 2020
5. Махкамова Sh.R. Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси // "Экономика и социум" №11(90) 2021//
6. Икрамов А.И. ва бошқалар. “Таълим самарадорлигини ошириш йўллари” мавзусидаги семинар тренинг материаллари. /Тренинглар учун қўлланма. – Т.: ЎМКХТМ, 2002. -184б.
7. Нишонов А. ва бошқалар. Баҳолаш методлари. Ўқув-услугий қўлланма. – Т.: ЎМКХТРИ, 2003. – 156 б
8. Сарсенбаева Р.М. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.:“Молия-иқтисод”, 2019. – 388 б.
9. Сарсенбаева Р.М. Иқтисодий фанларни ўқитишда қўлланиладиган интерактив методлар. Ўқув-услугий қўлланма. – Т.: ТМИ, 2015. – 152 б

10. Сарсенбаева Р.М. “Касбий педагогика” ўқув фанини ўрганиш учун ишчи дафтар. Услубий қўлланма. –Т.: ТМИ, 2019. – 112 б.